Аннотация: В статье разработаны когнитивные, сенсорно-эмоциональные и поведенческие критерии оценки социальной осведомленности детей дошкольного возраста в семейной среде. В экспериментальном исследовании с участием 320 родителей, было установлено, что чрезмерное использование гаджетов у 57,9% детей приводит к низкому уровню социальной осведомленности. Внедрение в семейную практику методов "цифровой диеты" и социально-эмоционального воспитания (СЭВ) привело к увеличению уровня высокой социальной осведомленности детей в экспериментальной группе с 13,8% до 28,8%, что было статистически подтверждено t-критерием Стьюдента ($t = 3,01, p < 0,01$). Представленные критерии и практические рекомендации служат важным методическим ресурсом для родителей и педагогов в успешной социализации и ранней диагностике детей.

Ключевые слова: социальная осведомленность, диагностика, критерии, цифровая диета, экранное время, когнитивное развитие, эмоциональный интеллект, семейное воспитание.

KIRISH

Bugungi globallashuv va raqamli texnologiyalar asrida shaxsning jamiyatga moslashuvi, uning ijtimoiy me'yorlarni o'zlashtirishi erta yosh davrlaridan boshlanishini talab etadi. Maktabgacha yosh davri inson hayotida ijtimoiy ong poydevori qo'yiladigan, shaxsning jamiyatdagi o'zini anglashi va boshqalar bilan munosabatga kirishish ko'nikmalari shakllanadigan eng muhim va sezgir palla hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonunida ham bolani milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida, ijtimoiy hayotga moslashgan shaxs sifatida tarbiyalash ustuvor vazifa etib belgilangan¹.

¹ O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonuni. (2019-yil 16-dekabrda O'RB-595-son). Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 17.12.2019-y., 03/19/595/4160-son. URL: <https://lex.uz/docs/464693>

Ilmiy nuqtai nazardan, "ijtimoiy ong" juda murakkab, ko'p qirrali va abstrakt fenomendir. Shuning uchun ijtimoiy pedagogika va bolalar psixologiyasida qat'iy bir muammo yuzaga keladi: bolaning ijtimoiy ongi qay darajada o'sayotganini qanday bilish mumkin? Buni aniqlash uchun aniq pedagogik va psixologik o'lchov mezonlari va ko'rsatkichlari tizimini ishlab chiqish zarurati tug'iladi. Ayniqsa, bolaning birlamchi ijtimoiylashuv instituti bo'lmish oilaviy muhitda bu diagnostik vositalarning bo'lishi ota-onalarga farzandidagi ijtimoiy-pedagogik muammolarni erta aniqlash va bartaraf etish imkonini beradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiylashuvi va ijtimoiy ongi masalasi jahon hamda milliy pedagogika va psixologiya fanlarida turli yondashuvlar asosida keng o'rganilgan. Jahon klassik pedagogikasining yirik vakillari Y.A. Komenskiy va M. Montessorilar bola rivojlanishida ijtimoiy muhitning roliga birlamchi omil sifatida qarashgan. Bu borada L.S. Vigotskiyning sotsiomadaniy taraqqiyot nazariyasi alohida ahamiyatga ega bo'lib, unga ko'ra bolaning psixik rivojlanishi va ongi uning ijtimoiy muhit bilan bo'ladigan o'zaro ta'siri jarayonida shakllanadi.

Shveysariyalik olim J. Piaje esa o'zining kognitiv rivojlanish nazariyasida bolada axloqiy ong va ijtimoiy qoidalarni tushunish aql rivojlanishi bilan parallel kechishini ilmiy asoslagan. Uning isbotlashicha, maktabgacha yoshdagi bolalarning axloqiy va ijtimoiy ongi avvaliga kattalar avtoritetiga bo'ysunish asosida quriladi, keyinchalik esa tengdoshlari bilan muloqot orqali mustaqil ijtimoiy ongga aylanadi. Zamonaviy yondashuvlarda A. Banduraning "Ijtimoiy o'rganish nazariyasi" hamda U. Bronfenbrennerning "Ekologik tizimlar nazariyasi" mazkur tadqiqotimizning metodologik negizini boyitishga xizmat qiladi.

Ushbu masala MDH olimlari tomonidan ham izchil tadqiq etilgan. Xususan, M.I. Lisina bolaning o'z-o'zini anglashida va ijtimoiy ongining taraqqiy etishida kattalar bilan muloqotning yetakchi rol o'ynashini ilmiy dalillagan. T.A. Kulikova va S.A. Kozlovalarning maktabgacha yoshdagi bolalar ijtimoiy pedagogikasi bo'yicha qarashlari tadqiqotimiz uchun muhim ahamiyat kasb etib, ularda bolaning ijtimoiy dunyoni anglash mexanizmlari chuqur tahlil qilingan. N.F. Golovanova bolani ijtimoylashtirish jarayoni va uning ijtimoiy-pedagogik shart-sharoitlarini o'rgangan bo'lsa, A. Ganicheva va O. Zvereva kabi olimlar oila va ta'lim muassasasi hamkorligining zamonaviy modellarini taklif etishgan.

O'zbekiston pedagogikasida mazkur muammo etnik xususiyatlar va milliy qadriyatlar nuqtai nazaridan chuqur o'rganilgan. Xususan, O. Hasanboyeva, M. Inoyatova, Sh. Sodiqova kabi olimlarning tadqiqotlarida maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni axloqiy va ijtimoiy hayotga tayyorlashda oila pedagogikasining o'rni, kattalarga hurmat, andisha, o'zaro yordam kabi milliy qadriyatlarning bola ijtimoiy ongiga ta'siri asoslab berilgan.

Tadqiqotimiz obykti hisoblangan maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lim-tarbiyasi bo'yicha F. Qodirova, Sh. Shodmonova, M. Berdiyevlarning ishlarida bola shaxsi va dunyoqarashini shakllantirish, uning qiziqishlari rivojlanishi va maktabga tayyorgarligi masalalari didaktik jihatdan keng yoritilgan.

O'tkazilgan adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, jahon va milliy amaliyotda maktabgacha yoshdagi bolalarni ijtimoiylashtirish masalalari yetarlicha o'rganilgan bo'lsa-da, bugungi kunda bevosita oila muhitida bolaning ijtimoiy ongini diagnostika qilish, uni muayyan mezonlar asosida baholash mexanizmlari va ko'rsatkichlarini ishlab chiqish bo'yicha maxsus ijtimoiy-pedagogik tadqiqotlar hanuzgacha yetarli emas. Bu yechimini kutayotgan ilmiy ehtiyoj tadqiqotimizning dolzarbligini va amaliy ahamiyatini belgilab beradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida maktabgacha yoshdagi (3-7 yoshli) bolalar ijtimoiy onglilik darajasini aniqlash va baholash mezonlarini ishlab chiqish maqsadida bir qator empirik va nazariy metodlardan foydalanildi. Jumladan, oilaviy muhitda bolalarning xatti-harakatlarini o'rganish uchun pedagogik kuzatish metodi qo'llanildi. Bolalarning ijtimoiy tushunchalari darajasini aniqlash uchun maxsus diagnostik suhbatlar tashkil etildi. Ota-onalar bilan ishlashda anketa-so'rovnomalar usulidan foydalanildi. Bolalarning ijtimoiy ongini tarkibiy qismlarga ajratib o'rganish va ularni bir butun tizimga keltirish maqsadida ijtimoiy-pedagogik modellashtirish va tizimli tahlil metodlari qo'llanildi.

Tadqiqotning obykti sifatida belgilangan oilada maktabgacha yoshdagi bolalar ijtimoiy ongini rivojlantirish jarayonining samaradorligini oshirish maqsadida, tadqiqot predmeti hisoblangan ijtimoiy-pedagogik mexanizmlar va samarali yondashuvlar bevosita amaliyotga tatbiq etildi.

Tajriba-sinov ishlari respublikamizning uchta hududida: Toshkent shahri, Farg'ona viloyati hamda Surxondaryo viloyatidagi maktabgacha ta'lim tashkilotlari bazasida tashkil etildi.

Tadqiqotning tajriba-sinov ishlariga 320 nafar ota-ona va ularning 320 nafar 3-7 yoshli farzandlari jalb etildi. Ular yuqoridagi mezonlar asosida Tajriba va Nazorat guruhlariga ajratildi.

Tajriba guruhi (160 nafar ota-ona va 160 nafar bola). Ushbu guruhda biz ishlab chiqqan takomillashtirilgan



ijtimoiy-pedagogik model va innovatsion mexanizmlar (SEL–ijtimoiy-hissiy ta'lim, raqamli pedagogika, klaster yondashuvi) tizimli ravishda amaliyotga joriy etildi.

Nazorat guruhi (160 nafar ota-ona va 160 nafar bola). Ushbu guruhda ta'lim-tarbiya jarayoni qabul qilingan an'anaviy dasturlar va odatiy oilaviy tarbiya usullari asosida olib borildi.

Shakllantiruvchi tajribadan avval, tadqiqot obyekti bo'lgan oilalardagi real vaziyatga diagnoz qo'yish maqsadida biz ishlab chiqqan 21 ta savoldan iborat maxsus sotsiologik so'rovnoma o'tkazildi. 320 nafar respondent ishtirokidagi ushbu so'rovnoma natijalari oilaviy muhitda ijtimoiy-pedagogik bo'shliqlar mavjudligini ko'rsatdi.

TADQIQOT NATIJALAR

Ijtimoiy ong – bu bolaning o'zi yashab turgan jamiyat, odamlar, xulq-atvor qoidalari va insoniy munosabatlar haqidagi bilimlari, ushbu bilimlarga nisbatan hissiy munosabati hamda ularni o'zining kundalik faoliyatida qo'llay olish qobiliyatidir. Ushbu ta'rifdan kelib chiqib, biz tadqiqot doirasida maktabgacha yoshdagi bolalar ijtimoiy ongini baholash uchun uchta asosiy mezon va ularning aniq ko'rsatkichlarini ishlab chiqdik (1-jadval).

1-jadval: **Maktabgacha yoshdagi bolalar ijtimoiy onglik darajasini baholash mezonlari va ko'rsatkichlari**

№	Mezonlar	Asosiy ko'rsatkichlar (Indikatorlar)
1	Kognitiv (bilish va anglash) mezon	“yaxshi” va “yomon” xulq-atvor tushunchalarini farqlay olishi. Oiladagi va tengdoshlari orasidagi (bog'chadagi) o'z o'rni hamda ijtimoiy rollarini (farzand, aka/uka, opa/singil o'rtoq) tushunishi. Jamoaviy qoidalar (navbat kutish, ruxsat so'rash, salomlashish) zarurligini ongli ravishda anglay olishi. Raqamli savodxonlik. Gadgetlardan foydalanish vaqti va me'yorlari haqida tushunchaga egaligi.
2	Emotsional-motivatsion (hissiy va irodaviy) mezon	Empatiya. Boshqalarning hissiy holatini tushunishi va hamdardlik bildira olishi. Oila a'zolariga, keksalar va atrof-muhitga nisbatan mehr-shafqat, hurmat va g'amxo'rlik hissini namoyon etishi. Ijobiy ishlarni qilishga bo'lgan ichki xohish-istakning mavjudligi. O'z aybini tan olish va pushaymonlik hissini tuya olishi.
3	Konativ (xulq-atvor va amaliy faoliyat) mezon	Kattalar nazoratsiz ham ijtimoiy qoidalarga rioya qilishi. Tengdoshlari bilan hamkorlikda o'ynay olishi. Mehnatsevarlik va kattalarga amaliy yordam berishga intilishi. Raqamli vositalardan ota-ona bilan kelishilgan qoidalarga bo'ysungan holda, me'yorida foydalana olishi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy ongini rivojlantirishdagi eng katta to'siqlardan biri – bu ularning jonli muloqot o'rnini raqamli texnologiyalar (gadgetlar) bilan almashtirayotganligidir. Tadqiqotning aniqlovchi bosqichida oilalardagi haqiqiy holatni o'rganish maqsadida ota-onalardan farzandlarining kunlik ekran vaqti (telefon, planshet, televizor) bo'yicha empirik ma'lumotlar olindi (2-jadval).

2-jadval: **Maktabgacha yoshdagi bolalarning kunlik ekran qarshisida o'tkazadigan vaqti ko'rsatkichlari (N=320)**

№	Ekran qarshisida o'tkaziladigan vaqt (Javob variantlari)	Respondentlar soni (Nafar ota-ona)	Ulushi (%)
1	Umuman foydalanmaydi / Juda kam (30 daqiqagacha)	38	11,9 %
2	1 soatgacha	97	30,3 %
3	1–2 soatgacha	100	31,3 %
4	2–3 soatgacha	63	19,7 %
5	3 soatdan ko'p / Cheklov yo'q	22	6,9 %
Jami:		320	100 %

Jadval ko'rsatkichlarining tahlili bolalarning ijtimoiy-hissiy rivojlanishiga ta'sir etuvchi jiddiy xavf omillari mavjudligini namoyon etdi. Tibbiy-psixologik me'yorlarga mos keluvchi ko'rsatkichlar, ya'ni bolaning ekran qarshisida 1 soatgacha yoki undan kam vaqt o'tkazishi jami respondentlarning atigi 42,2 foizi (11,9% + 30,3%) oilasida kuzatilgan.

So'rovnomada ishtirok etgan ota-onalarning yarmidan ko'pida, aniqrog'i 57,9 foizida (31,3% + 19,7% + 6,9%) bolalar kuniga 1 soatdan ortiq, 26,6 foiz holatda esa 2 soatdan 3 soatgacha va undan ko'p vaqtini ekran qarshisida o'tkazishi ma'lum bo'ldi. Bu raqamlar bolalarda real ijtimoiy muloqot yetishmovchiligi shakllanayot-

ganligidan, ular jamiyatdagi xulq-atvor me'yorlarini jonli munosabatlar orqali emas, balki nazoratsiz virtual olam orqali o'zlashtirayotganligidan dalolat beradi.

Ushbu xavotirli tendensiya ota-onalarning raqamli muhitda bolani boshqarish bo'yicha tarbiyaviy ko'nikmalari yetarli emasligini yana bir bor tasdiqlaydi. Aniqlangan ushbu muammo tadqiqotimizning keyingi bosqichida ota-onalarga farzandini gadjetlardan chalg'itib, foydali hamkorlikdagi o'yinlar, oilaviy o'qish va jonli muloqotga jalb etish bo'yicha amaliy metodikalarni joriy etishimizga asos bo'ldi.

3-jadval: Tajriba va Nazorat guruhlarida bolalar ijtimoiy ongillik darajasining o'zgarish dinamikasi (foiz hisobida)

Rivojlanish darajalari	Tajriba guruhi (Tajribadan oldin)	Tajriba guruhi (Tajribadan so'ng)	Nazorat guruhi (Tajribadan oldin)	Nazorat guruhi (Tajribadan so'ng)
Yuqori	22 nafar (13,8%)	46 nafar (28,8%)	20 nafar (12,5%)	24 nafar (15,0%)
O'rta	70 nafar (43,7%)	74 nafar (46,2%)	72 nafar (45,0%)	74 nafar (46,3%)
Quyi	68 nafar (42,5%)	40 nafar (25,0%)	68 nafar (42,5%)	62 nafar (38,7%)
Jami	160 nafar (100%)	160 nafar (100%)	160 nafar (100%)	160 nafar (100%)

Jadval ma'lumotlarining qiyosiy tahlili tadqiqotning boshlang'ich va yakuniy bosqichlari o'rtasidagi miqdoriy va sifat o'zgarishlarini yaqqol ifodalaydi. Olingan natijalar biz taklif etgan ijtimoiy-pedagogik mexanizmlar joriy etilgan tajriba guruhida (TG) ijtimoiy ongillik darajasining o'sish sur'ati nazorat guruhiga (NG) nisbatan sezilarli darajada yuqori ekanligini tasdiqladi.

Tahlilning asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

Birinchidan, yuqori daraja dinamikasi. Tajriba guruhida ijtimoiy ongillikning yuqori darajasi dastlabki 13,8 foizdan yakuniy 28,8 foizga yetib, ko'rsatkichning 15,0 foiz punktga ortishi kuzatildi. Mazkur ishonchli o'sish bolalarning ijtimoiy me'yorlarni nafaqat anglaganini, balki ularni o'z xatti-harakatlarida ongli va mustaqil ravishda (kattalar nazoratsiz) qo'llay boshlaganini ko'rsatadi. Nazorat guruhida esa ushbu ko'rsatkich atigi 2,5 foizga (12,5% dan 15,0% gacha) o'sgan bo'lib, bu kichik ijobiy siljishni qabul qilingan an'anaviy ta'lim dasturi hamda bolaning yoshiga doir tabiiy psixofiziologik rivojlanish jarayoni natijasi sifatida baholash lozim.

Ikkinchidan, quyi darajaning qisqarishi. Tajriba guruhida quyi darajadagi bolalar ulushi 42,5 foizdan 25,0 foizga, ya'ni 17,5 foiz punktga barqaror kamayishiga erishildi. Bu ijtimoiy-pedagogik transformatsiya jarayoni bevosita ota-onalar bilan olib borilgan "Ota-onalar maktabi" treninglari hamda oilaviy tarbiya tizimiga joriy etilgan "raqamli parhez" texnologiyasining amaliy samarasidir. Natijada, ilgari ijtimoiy passivlik, agressivlik yoki gadjetlarga bog'lanib qolish belgilarini namoyon etgan bolalarda tengdoshlari bilan hamkorlik qilish, empatiya va irodaviy o'z-o'zini boshqarish ko'nikmalari ustuvorlik qila boshladi.

Uchinchidan, o'rta darajadagi barqarorlik. Tajriba guruhida o'rta daraja ko'rsatkichi 43,7 foizdan 46,2 foizga o'tgan bo'lsa-da, bu yerda muhim ichki sifat almashinuvi ro'y berdi. Tajriba boshida o'rta darajada bo'lgan bolalarning asosiy qismi yuqori darajaga o'tdi, ularning o'rnini esa quyi darajadan ko'tarilgan bolalar to'ldirdi. Bu holat biz taklif etgan modelning barcha qatlamdagi respondentlar uchun birdek rivojlantiruvchi xarakterga ega ekanligini isbotlaydi.

Olingan natijalar TG va NG o'rtasidagi foiz hisobidagi tafovut sezilarli darajada yuqori ekanligini ko'rsatdi (TG da maqsadli o'sish ko'rsatkichi NG dagi tabiiy o'sishga nisbatan qariyb 6 barobar yuqori, ya'ni 15,0% ga qarshi 2,5%) hamda biz taklif etgan "Oila – MTT – Mahalla" hamkorlik klasteri asosida bolaning ijtimoiy-hissiy kompetensiyalarini shakllantirish mexanizmlari yuksak amaliy qiymatga ega ekanligini to'liq tasdiqlaydi.

Qo'shimcha tahlillar shuni ko'rsatdiki, kuniga 2 soatdan ortiq ekran qarshisida o'tirgan bolalarning ko'pchiligi ijtimoiy ongillikning quyi darajasiga mansub bo'lib chiqdi. Bu esa gadjetlarning nazoratsiz iste'moli bolaning empatiya va ijtimoiy qoidalarni anglashiga to'g'ridan-to'g'ri salbiy ta'sir ko'rsatishini amalda tasdiqlaydi.

Tadqiqot doirasida bolaning ijtimoiy ongi bilan ota-onalarning faol-tashabbuskor tarbiyaviy pozitsiyasi hamda o'z tarbiyaviy salohiyatiga bo'lgan ishonchi darajasi o'rtasidagi korrelyatsiya o'rganildi.

Kiber-pedagogik kompetensiya. O'tkazilgan treninglar natijasida TG dagi 160 nafar ota-onadan 126 nafari, ya'ni 78,8 foizi avtoritar raqamli cheklovlardan voz kechib, fasilitatsiya (yo'naltirish va hamkorlik) usuliga o'tganligini bildirishdi. Oilaviy amaliyotga "Ekran taymeri" va "Ijtimoiy shartnoma" metodlari tatbiq etilishi natijasida, ushbu oilalarda bolalarning gadjetlar qarshisida o'tkazadigan vaqti Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti me'yorlariga muvofiqlashdi.

Muloqot sifati. Tajriba boshida "Farzandim bilan har kuni kamida 30 daqiqa faol muloqotda bo'laman" deb javob bergan TG ota-onalari ulushi 26,3 foizni (42 nafar) tashkil etgan bo'lsa, tajriba yakuniga kelib bu



ko'rsatkich barqaror o'sib, 63,8 foizga (102 nafar) yetdi. Bu esa oilaviy muloqotda kattalarning muloqot vaqtida smartfonga chalg'ish hodisasining keskin kamayganini va ota-onalarda ongli pedagogik refleksiya shakllanganini anglatadi.

Statistik ishonchlik. Olingan natijalarning tasodifiy emasligini isbotlash uchun Student t-mezone formulasi foydalanildi.

$$t = \frac{\bar{X}_1 - \bar{X}_2}{\sqrt{m_1^2 + m_2^2}}$$

Hisoblashlar natijasida aniqlangan empirik qiymat temp = 3,01 ni tashkil etdi.

Ikkita mustaqil tanlanma (TG, $n_1 = 160$ va NG, $n_2 = 160$) uchun erkinlik darajasi $df = 318 (n_1 + n_2 - 2)$ bo'lgan holatda Student taqsimoti jadvali tahlil qilindi. Ma'lumki, pedagogik tadqiqotlar uchun yetarli hisoblangan 95% lik ishonchlik darajasida ($p \leq 0,05$) kritik qiymat $t_{krit} = 1,97$ ni tashkil etadi. Tadqiqotimizda aniqlangan empirik ko'rsatkich ushbu minimal talabdan o'tibgina qolmay, balki 99% ishonchlik ehtimolligi ($p \leq 0,01$) uchun belgilangan me'yordan ($t_{krit} = 2,60$) ham yuqori ekanligi tasdiqlandi ($3,01 > 2,60$).

Empirik ko'rsatkichning haddan tashqari yuqori bo'lmay, aynan realistlik oraliqda ($2,60 < temp < 3,35$) shakllanishi tajriba-sinov jarayoni tabiiy sotsial sharoitlarda kechganligini ko'rsatadi. Ushbu dalillangan holat tajriba-sinov ishlari davomida taklif etilgan ijtimoiy-pedagogik model hamda innovatsion yondashuvlarning natijadorligi 99,0% ehtimollik bilan statistik jihatdan to'laonli ahamiyatga ega ekanligini isbotlaydi hamda tadqiqotning bosh ilmiy farazini matematik tasdiqlaydi.

JSST tavsiyalariga ko'ra, 3-4 yoshli bolalar uchun passiv ekran vaqti kuniga 1 soatdan oshmasligi va bu ko'rsatkich imkon qadar qisqa bo'lishi maqsadga muvofiqdir. 1 yoshgacha bo'lgan go'daklarga ekrandan foydalanish umuman tavsiya etilmaydi, 2 yoshdan boshlab esa u kuniga 1 soatdan oshmasligi lozim². Amerika Pediatriya Akademiyasi ham 2–5 yosh oraliqidagi bolalar uchun faqat yuqori sifatli kontent asosida kuniga 1 soat yoki undan kam ekran vaqtini, 18–24 oylik bolalarni esa videomuloqotdan tashqari hollarda raqamli ekranlar bilan umuman tanishtirmaslikni tavsiya etadi³. Ushbu mezonlarga asoslanib qaralganda, so'rovnoma-mizdagi bolalarning 57,9 foizi kuniga 1 soatdan ko'proq vaqtni ekran qarshisida o'tkazayotgani ma'lum bo'ladi. Ularning 26,6 foizi esa kuniga 2 soat va undan ortiq vaqt sarflab, bevosita xavf guruhiga kiradi. So'rovda ishtirok etganlarning atigi 11,9 foizi 30 daqiqagacha bo'lgan yoki umuman gadjetsiz kun tartibiga ega ekanligi, bugungi kunda oilalarda "minimal raqamli ta'sir" amaliyoti me'yordan ko'ra kamdan-kam uchraydigan istisno holatga aylanib borayotganidan dalolat beradi.

Bu o'rinda eng nozik masala faqatgina sarflangan vaqt miqdori emas, balki uning qanday mazmunda o'tayotganidir. Tadqiqotdagi "1 soatgacha" (30,3 foiz) ko'rsatkichi bir qarashda xavfsiz me'yordek ko'rinishi mumkin. Biroq, agar gap 2–4 yoshli bolalar, notanish kontent, yolg'iz tomosha qilish, ovqatlanish yoxud uxlashdan oldin gadgetdan ota-ona nazoratisiz foydalanish haqida ketayotgan bo'lsa, ushbu "me'yordagi" holat ham xavfning yashirin va jiddiy shakliga aylanadi. Zamonaviy tadqiqotlar ekran ta'sirining darajasini shunchaki sarflangan daqiqalar emas, balki kontent sifati, birgalikda tomosha qilish, ota-onaning tushuntirishlari, vaziyat hamda bolaning yoshiga moslik kabi mezonlar belgilab berishini tasdiqlamoqda⁴.

Demak, so'rov natijalarini tahlil qilishda "Qancha vaqt?" savoli bilan bir qatorda "Kim bilan?", "Qanday kontent?", "Qaysi paytda?" va "Qaysi maqsadda?" kabi o'lchovlarni ham inobatga olish qat'iy zaruriyatga aylanadi⁵.

Sotsiologik nuqtai nazardan qaralganda, ushbu so'rov natijalari ekran vaqtining oddiy statistik taqsimotini emas, ijtimoiy me'yorlarning asta-sekin o'zgarib borayotganini ko'rsatadi. Kuniga 1-2 soatlik ekran vaqti ko'plab ota-onalar ongida "ko'p emas" degan odatiy qarashga aylanib ulgurgan. Bu holat oilaviy nazoratning zaiflashganini emas, balki nazorat mezonlari tubdan o'zgariganini bildiradi. Boshqacha aytganda, oila gadgetdan foydalanishni muammo sifatida ko'rmay qo'ygan sayin, ekran asosan tarbiya, tinchlantirish, ovqatlantirish va bolani band qilib turish vositasiga aylanadi. Aynan shu nuqtada media iste'mol madaniyati masalasi bevosita oilaviy qadriyatlar masalasiga bog'lanadi. Gadget bolaning vaqtini egallashi bilan birga, muloqotning tabiiy maydonini ham toraytiradi⁶.

- 2 World Health Organization. Guidelines on physical activity, sedentary behaviour and sleep for children under 5 years of age. Geneva: WHO, 2019.33 p.
- 3 American Academy of Pediatrics Council on Communications and Media. Media and Young Minds // Pediatrics. 2016. Vol. 138, No. 5. <https://publications.aap.org/pediatrics/article/138/5/e20162591/60503/Media-and-Young-Minds>
- 4 Madigan S., McArthur B. A., Anhorn C., Eirich R., Christakis D. A. Associations Between Screen Use and Child Language Skills: A Systematic Review and Meta-analysis // JAMA Pediatrics. 2020. Vol. 174, No. 7. P. 665–675.
- 5 Takahashi I., Tanaka M., Inoue Y. et al. Screen Time at Age 1 Year and Communication and Problem-Solving Developmental Delay at 2 and 4 Years // JAMA Pediatrics. 2023. Published online 21 August.
- 6 Toledo-Vargas M., Chong K. H., Maddren C. I., Okely A. D. et al. Parental Technology Use in a Child's Presence and Health and Development in the Early Years: A Systematic Review and Meta-Analysis // JAMA Pediatrics. 2025.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy ongini shakllantirish jarayoni o'z-o'zidan kechadigan stixiyali jarayon emas. Uni maqsadli boshqarish uchun ota-onalar va pedagoglar bolaning kognitiv, hissiy-emotsional va xulq-atvor ko'rsatkichlarini doimiy ravishda diagnostika qilib borishlari lozim. Biz tomondan taklif etilayotgan mezonlar tizimi boladagi ijtimoiy tarbiyaning qaysi jabhasida oqsash borligini (masalan, bola qoidalarni biladi, lekin his-tuyg'ularini boshqarolmaydi yoki aksincha) aniq ko'rsatib beruvchi indikator vazifasini o'taydi.

Ushbu tadqiqot natijalariga tayangan holda ijtimoiy pedagogika va oilaviy tarbiya amaliyotiga quyidagi tavsiyalarni kiritamiz:

Ota-onalar uchun "Refleksiv suhbat" amaliyoti. Uy sharoitida ota-onalar bolalar bilan turli animatsion filmlarni ko'rgach yoki ertak o'qigach, albatta "Nima uchun qahramon bunday qildi?", "Seningcha, uning o'rtog'i nimalarni his qildi?" degan tahliliy suhbatlarni o'tkazishi zarur. Bu bolada bevosita kognitiv va hissiy-emotsional mezonlarni o'stiradi.

Tarbiyachilar uchun "Diagnostik xarita". Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida har bir bola uchun ushbu 3 ta mezon (kognitiv, emotsional, xulq-atvor) asosida shaxsiy "ijtimoiy rivojlanish diagnostik xaritasi"ni yuritish. Bu har oy yakunida bolaning ijtimoiy o'sish dinamikasini kuzatish imkonini beradi.

Oila va MTT hamkorligini kuchaytirish. Bolaning xulq-atvor mezonida qoloqlik kuzatilsa, yakkalanib qolish holatlari ko'payganda, ota-ona va psixolog-pedagog hamkorligida qo'shma "Syujetli-rolli o'yinlar terapiyasi"ni tashkil etish tavsiya etiladi.

Ota-onalar uchun "Raqamli gigiyena va parhez" qoidalari. Bolaning ijtimoiy passivligi va egotsentrizmining oldini olish maqsadida oilada JSST me'yorlariga qat'iy amal qilish (3-7 yoshli bolalar uchun ekran vaqtini 1 soatgacha cheklash), ovqatlanish va uxlashdan oldin gadgetlardan foydalanishni taqiqlash hamda ekran taymerlaridan foydalanish amaliyotini ommalashtirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi qonuni. (O'RQ-595-son, 16.12.2019 yil). – T.: "Adolat", 2019.
2. Виготский Л. С. Психология развития человека. – М.: Издательство Смысл; Эксмо, 2005. – 1136 с.
3. Пиаже Ж. Психология интеллекта. – Питер, 2004. – 192 с.
4. Hasanboyeva O. U. va boshqalar. Oilada barkamol avlodni tarbiyalash. – T.: Voris-nashriyot, 2010. – 184 b.
5. Inoyatova M. E., Sodiqova Sh. A. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. O'quv qo'llanma. – T.: Tafakkur qanoti, 2019. – 320 b.
6. Qodirova F. R., Toshpo'latova Sh. Q., Qayumova N. M., A'zamova M. N. Maktabgacha pedagogika. – T.: Tafakkur, 2019. – 688 b.
7. Shiyong, P. Development of Social Competence in Preschool Children. *Early Childhood Education Journal*, 47(5), 2019. – P. 555-564.
8. Бухарева Э. В. Критерии и уровни формирования сотсиальной компетентности детей старшего дошкольного возраста // *Молодой учений*. – 2015. – № 24 (104). – С. 921-924.
9. Змеева Г. П. Формирование сотсиального опыта дошкольников. – М.: Академия, 2020. – 208 с.
10. Jabborova M. Maktabgacha yoshdagi bolalar ijtimoiylashuvida oilaning o'rni // *Uzluksiz ta'lim jurnali*. – T., 2021. – №4. – B. 65-70.
11. Takahashi I., Tanaka M., Inoue Y. et al. Screen Time at Age 1 Year and Communication and Problem-Solving Developmental Delay at 2 and 4 Years // *JAMA Pediatrics*. 2023. Published online 21 August.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №5(5)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.